



BUGUNGI ADABIY JARAYONDA NASR

Jo'rayeva Sarvinoz

*O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
O'ZMPU Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 401-guruh talabasi*

Annotatsiya: Maqolada Nazar Eshonqul qalamiga mansub "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi tahlil qilingan. Hikoyaning inson ongi va ruhiga, kitobxonni o'qigandan so'ng, muloxaza va fikrlashga qo'yadigan voqealar badiiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: hikoya, badiiy tasvir, o'xshatish, maymun, talaba, do'st, surat, yosh yigit, adolatsizlik, xiyonat, qorong'ulik, qora bo'yoq, qissa.

Аннотация: В статье анализируется рассказ Назара Эшонкула «Человек, ведомый обезьяной». События рассказа, затрагивающие человеческий разум и душу и побуждающие читателя к размышлениям после прочтения, анализируются с художественной точки зрения.

Ключевые слова: история, художественный образ, сравнение, обезьяна, студент, друг, картина, молодой человек, несправедливость, предательство, тьма, черная краска, история.

Abstract: The article analyzes the story "The Man Led by a Monkey" by Nazar Eshonkul. The events of the story that affect the human mind and soul, and make the reader think and reflect after reading, are analyzed artistically.

Keywords: story, artistic image, simile, monkey, student, friend, picture, young man, injustice, betrayal, darkness, black paint, story.

KIRISH

Bugun jamiyatimizda barcha soha vakillari va yoshlarimizning ta'lim va tarbiya olishlari, kasb egallashlari, jamiyatda o'z fikrini bildira oladigan, tafakkuri va ilmi boy bo'lishiga qaratilgan chora-tadbirlar va sharoitlar keng yaratilgan. Masalan, adabiyotshunosligimizda yurtimiz istiqboli va ravnaqini kuylab yozilgan she'rlar, ijodiy ishlar qo'llab - quvvatlanishi uchun qator tadbirlar, tanlovlar, davlat mukofotlari ta'sis etilgan. Har bir hudud va tuman, viloyatlarda qator tahririyatlar, gazeta nashriyotlarining tashkil etilganligi ham aynan yozuvchi ijodkorlarimizning ijodiy qobiliyatlari qo'llab-quvvatlanilayotganligidan darak beradi. Shu kabi ijodkorlarimiz orasida Nazar Eshonqulning hikoya va qissalarini o'qimagan, eshitmagan ijodkor yoki kitobxon bo'lmasa kerak.

ASOSIY QISM

Nazar Eshonqul 1962-yilda 15-iyunda Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi Tersota qishlog'ida tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan. Dastlabki asari - "Urush odamlari" deb nomlanadi. Nazar Eshonqul ijodining boshqa asarlardan farqi shundaki, o'z asarlarida insonning ruhiyati va holati, kechinmalarini "qimmatli" so'zlar bilan emas, badiiy vositalar bilan tasvirlagan. Insonlar va jamiyat orasidagi muammolar, xarakterlarni chiroyli o'xshatish va suratlar bilan ochib bergan. U asarlarida voqealarni beradi va fikrlashni o'quvchining o'ziga qoldiradi. Kelimg, uni "Maymun yetaklagan odam" hikoyasining tahlili bilan tanishamiz. Ushbu hikoya nomi bilan kitobxonni o'ziga jalb qiladi. Odam maymunni yetaklaganmi yoki maymun odamnimi?

Aslida, hikoya mazmuni quyidagicha: " Bu voqea uch yillar oldin bo'lgan edi. Shu ko'chadan bir uyni ijaraga olib ko'chib kelganimda cholning sharti ketib, parti qolgandi, u ko'chaning muyulishida men egallagan uyga qo'shni hovlida yashardi. Uni birinchi marta uyining oldidagi eski o'rindiqa chuqur o'yga tolgan holda ko'rgan edim. ..." Hikoyaning boshlanish qiyofasida cholni qoboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo'lgan, ajinlari taram-taram tashlangan ko'rimsiz yuzi badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab ketar edi deya tasvirlanishi hikoyaning g'ayrioddiy pafosini ochib bergan. Keyingi voqealarda esa hikoyaning rivojlanib borishi konflikt voqealar zahirida tasvirlanadi. Masalan, talavaning chol bilan, uning chizgan rasmlari bilan tanishuv jarayonlari. Cholning chizgan surati, ya'ni, ikki surat hayotiy xotiralarini yodga soluvchi, uning butun hayoti davomida o'zi ishongan falsafasidir. U shu ikki rasmda hayotiy haqiqatlarini tasvirlagandek ko'rinadi. Uning yoshlikda chizgan rasmi, navqiron, yosh, ko'zlarida qat'iyat va ishonch aks etgan yigitning o'rmondan bo'yniga tarang qilib tortilgan zanjir osilgan maymunni yetaklab chiqishi, bu ramziy belgi bo'lib, cholning yoshlik davrlariga ishora qiladi, ya'ni u yoshligida iqtidorli edi, uning chizgan tasvirlarida yorqinlik ko'tarinkilik qat'iyat aks etib turardi.

Maymunni yomonlik, hayotdagi salbiy holatlar, qorong'u bir mafkuraning ramzi deb olsak, yigitning maymunni zanjirlab yetaklab ketishi uning hayotidagi mana shu yomonliklar, salbiy mafkuraga qarshi kurashganligi va uning ustidan g'olib kelishi deya olish mumkin. Ammo cholning keyingi vaqtlarida chizgan suratlarida avvalgilaridagi yorqinlik tobora susayib, iliq ranglar o'rnini g'ira - shira, qora bo'yoqlar egallay boradi. Chol hayoti davomida juda ko'p nohaqliklar, adolatsizliklarni ko'radi. Shuning uchun ham bu ikki surat uning yoshlik va keying yillardagi hislarini yoritib beruvchi vositadir. Chol "hayotda nima yaxshiligi yu nima yomonlik, hech gachon farqlab bo'lmaydi, yaxshilik - ayni paytda kimlargadir yomonlik, yomonlik esa ayni paytda kimlargadir yaxshilik bo'lib tuyuladi, mening umrimda anglagan xulosam shu" degan gaplari orqali do'stining hayoti orqali o'z hayoti uchun ham xulosa chiqarib bo'lgandi. Uning hayotida salbiy xulosalarni keltirib chiqaruvchi qanday hodisalar sodir bo'ldi bu bizga qorong'u, o'sha davrdagi "yuqoridan shuncha xom-ashyo bor, deb buyruq kelardi. Buyruqni inkor etib yoki muhokama qilib bo'lmasdi, - biz ana shunday ruhda tarbiyalaganmiz, - uni bajarish kerak!" qabilidagi ijtimoiy tuzum bunga sabab bo'lgandir, ehtimol.."E'tiqod!

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish joizki, insonlarning fikri yoki boshingizga kelgan qiyinchilik va tashvishlar hechqachon bo'yingizni, mag'rur boshingizni egmasin.

Nima tashvish va sinov kelsa ham, ruhiyatan cho ‘kib qolmaslikka, hamisha olg’a intilib harakat qilishga odatlaning. Chol yoshlik vaqtlarini xotirlar ekan, uning jamiyatdagi bu kabi soxta va salbiy odatlarni maymunga qiyoslab yetaklab, doim unga qarshi chiqqan yigit bo‘lganligini ko‘rdik. Siz ham xuddi u singari hamisha olg’a intiladigan inson bo‘ling. Nazar Eshonqul hikoyalari aynan mana shu badiiy o‘xshatish va tasvirlar orqali berilishi bilan ajralib turishini yana bir bor hikoya tahlili misolida ko‘rdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nazar Eshonqul. Maymun yetaklagan odam. -Toshkent, “Yangi asr avlodi”, - 2004.
2. Norbekova A. Nazar Eshonqul hikoyalari uslubi. “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi misolida ilmiy maqola.
3. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Darslik. -Toshkent.,- 2017.
4. Tolibova M. Nazar Eshonqul asarlari badiiy tahlili.